

## Yangi ishlanmalar va ilg`or usullar — taraqqiyot mezoni

2018-yil 22-26-oktabr kunlari Toshkent shahridagi "O'zekspomarkaz"da Xalqaro innovatsiya yarmarkasi doirasida "InnoWeek" innovatsion va investitsion forumi bo'lib o'tdi. Mazkur tadbirning maqsadi mamlakatimizda va chet elda ishlab chiqilgan yangi texnologiyalarni namoyish qilish, texnologiyalar almashish, qadimgi usullarni modernizatsiya qilishdir, natijada aholi turmush sifatini yaxshilashga va mamlakat iqtisodiyotida yangi investitsion imkoniyatlarni aniqlashga qaratilgan.



O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti ham "InnoWeek"da ikkita yangi soyaning "Sochilmash" navi hamda tuproq unumdarligini oshirish uchun biologik mahsulot "Bioazot" ishlanmalari bilan ishtirok etdi.




Bundan tashqari, O'zR FAGenomika va bioinformatika markazi tomonidan Gen-nokaut texnologiyasi yordamida kartoshkaning yangi navlarini olish hamda tok o'simligining noyob vinobop navlarini in vitro ko'paytirish loyihalari namoyish etildi.


# КАРТОШКАДА (*SOLANUM TUBEROSUM L.*) ГЕН-НОКАУТ ТЕХНОЛОГИЯСИ ЁРДАМИДА АГРОНОМИК ХУСУСИЯТЛАРИ ЯХШИЛАНГАН БИОТЕХНОЛОГИК НАВЛАР ОЛИШ

## Лойиханинг мақсади

Картошкани қатор агрономик хусусиятларини (хосилдорлик, эртапишарлик) яхшилаб киска муддатларда янги биотехнологик навларни яратиши.



*In vitro* шароитида олинган микротуганлардан иссиқхона шароитида мини туганлар олиш ва 2019 йилда (биринчи йил далаларидаги) супер-супер-элита ургулук етишитириши.



A – Ўзидаги картошка PHYB генитутган мини-туссанак;  
B – назорат (трансформация бўймасан мини-туссанак).

## Лойиха паспорти

Лойиха манзили		Тошкент вилояти
Лойиха ташаббускори		Геномика ва биоинформатика маркази
Лойиха муддати		2019-2023 йиллар
Лойиха қиймати		8,0 млдр. сўм
Лойиханинг йиллик куввати		200 тонна
Бир кг уруғ нархи		8 000 сўм
Мавсумий даромад		1 600 000 000 сўм
Ишга тушириш муддати		2019 йил
Яратиладиган қўшимча ишчи ўрни		20 та

Яратиладиган қўшимча ишчи ўрни



# ТОК ЎСИМЛИГИНИНГ НОЁБ ВИНОБОП НАВЛАРИНИ IN VITRO ҚЎПАЙТИРИШ

## Лойиханинг мақсади

Ток ўсимлигининг йўқолиб бораётган ноёб винобоп навларини in vitro қўпайтириш



- Шардоне
- Пино-гри
- Совиньон
- Кабарние
- Дюбре Де-Марсель
- Пуке
- Мальвазия красная
- Альфонс лавалье



## Лойиха паспорти

Лойиха манзили Тошкент вилояти

Лойиха ташаббускори Геномика ва биоинформатика маркази

Лойиха муддати 2019-2020

Лойиха қиймати 3 млрд. сўм

Лойиханинг ийллик қуввати 180 000 дона

Бир дона кўчат нархи 15 000 сўм

Ишга тушириш муддати 2019 йил

Яратиладиган қўшимча ишчи ўрни 20 та





Ushbu ishlanmalar “O’zsanoatqurilish” banki tomonidan moliyalashtirilib, tadbirkorlar bilan hamkorlikda ishlab chiqarishga joriy qilinmoqda. “Innoweek-2018” yopilish marosimida O’zR FA Genomika va bioinformatika markazi xodimlari tomonidan taqdim etilgan ishlanmalar bir qator nominasiyalarda g’olib deb topilib, estalik sovg’alar va sertifikat bilan taqdirlandi.

